

AZIZA OCHILOVA

**SHAHRIM  
YULDUZLARI**

Qarshi  
«Nasaf» nashriyoti  
2006

84(57)6-5 ўзб. 2020 ясарлару

## Шеърлар

Bolalikning shirin dunyosi nigohida sodda mavjlanib turgan va bu dunyoga ajablanib qarayotgan, qorishib ketgan turfa tuyg'ulari. Yosh qaiamkash Aziza Ochilova mazkur «SHAHRIM YULDUZLARI » nomli kitobida o'z kechinmalarini ana shunday ifoda etishga uringan.

№ 32954  
Og.

О 4702620202-43 43-2006 А. Ochilova, 2006 y.  
376(08)2006

ISBN 5-7323-0512-7

20 ~~02~~

Alisher Navciy  
nomidagi

O'zbekiston M

## O'ZBEKISTON - VATANIM

O'zbekiston Vatanim,  
Gulu gulzor chamanim,  
Undadir baxt - sharafim,  
Onajon O'zbekiston,  
Jonajon O'zbekiston.

Vatan, sening gulbog'ing,  
Nurga to'la quchog'ing,  
Yashnamoqda har yog'ing,  
Onajon O'zbekiston,  
Jonajon O'zbekiston.

## VATAN

Buloqdan suv ichar chanqagan inson,  
Yuksalar Vatan deb yashagan inson.  
Chashmaday chanqog'in qondir odamni,  
Tomiringda his qilib tur Vatanni.



## VATANIM

Vatanga muhabbat eng oliv tuyg'u,  
Tug'ilgan joyingga fidoyilik bu.  
Shu go'zal maskandan ayirma, Olloh,  
Jismimni Vatandan ayirma, Olloh.

Boshqa mamlakatga qilganda safar,  
Darhol sog'inamiz Vatanni har gal.  
Uni ulug'layman, tanda bor jonim,  
Shahrim, viloyatim, O'zbekistonim.

## BOBOM - SOHIBQIRON

Sohibqiron bobomga ta'zim,  
Kuch - qudratda bo'lganlar buyuk.  
Nomlarini e'zozlar xalqim,  
Temur nomi tillarda suyuk.

Ozod bo'lzin dedingiz Vatan,  
Bugun ozod siz sevgan diyor.  
Avlodingiz yaratib chaman,  
Yashar yurtda huru baxtiyor.

## **ONAJONLAR**

Onajonlar Ka'baday aziz,  
So'zlarida bordir ma'nolar.  
Ular so'zin ikki qilmaylik,  
Bizga farzdir, aziz bolalar.  
Shunda bizga doim baxt yordir,  
Umrimizning mazmuni bordir.

## **SHAHRIM YULDUZLARI**

Shahrim yulduzlarining,  
Yorqin va chiroyli.  
Osmoning top - toza,  
Tip-tiniq va oylı.

Hatto senda quyosh  
Nurin sochadi mo'l.  
Duoli keksa-yu yosh,  
Dillarida huzur.

## **YULDUZ BO'LGIM KELADI**

Osmonda bir yulduz  
Uchdi, men ko'rdim.  
Cheksiz samo qatin  
Quchdi, men ko'rdim.

Men ham osmonlarga  
Uchgim keladi.  
Shahrimning yulduzi  
Bo'lgim keladi.

## **SHAHRIM QIZLARI**

Shahrim lobar qizlari,  
Go'zallikda tengi yo'q.  
Yashnab turar yuzlari,  
Mehri issiq - misli cho'g'.

Sochlari sumbul - sumbul,  
Qora qoshlari qalam.  
Ochiladi misli gul,  
Har dam kelganda ko'klam.



## **UZTOZING DUOSI**

Har dam uztozing duosin olgin,  
Uztoz duosida qandaydir nur bor.  
Bunga erur guvoh shu ko'hna zamin,  
Duo olganlarga omad bo'lgan yor.

Ustozim so'zlarin qulqoqqa ilib,  
Yaxshi ishlarga shaylandim men ham.  
Axir donishmandlar aytganlar bilib,  
Ustozga egilgan bo'lmas sira kam.

## **ISHONCH KO'PRIKLARI**

Ishonch ko'priklari buzilganida  
Do'stimdan shunchalar xafa bo'lgandim.  
Barcha sirlarim oshkor qilganida  
Ko'zlarimdan yosh oqqanin sezdim.

Do'st tanlay bilmadim shudir xatoim,  
Shu bois buzildi ishonch ko'prigi.  
Lekin bir narsani angladim, bildim,  
Vafo mustahkamlar ekan do'stlikni.

## **SHU QIZCHA SHE'R YOZARMIKIN**

Shu qizcha she'r yozarmikin deb,  
Ishonmaydi ba'zi odamlar.  
Ko'nglim o'ksib-o'ksib ketadi,  
Bu so'zлами eshitgan damlar.

Ta'sir qilmas ba'zilarga gap,  
Bo'ladi har odamda ko'ngil.  
Men esa she'r yozaveraman,  
Yurtim odamlariga atab.

## **AYTILMAGAN SO'Z**

Qaysidir insonga shirin so'z aytdik,  
Kimi largadir og'ir botdi so'zimiz.  
Ha, o'shanda ancha yosh edik,  
Bugun esa voyaga etdik.

Angladikki , chuqur o'y surib,  
Goh dakki eshitdik, gohida rahmat.  
Dildan o'chirmoqchi edik ro'yonii,  
Bunga erishmoqlik ekan mashaqqat.

## **YUZINGIZDAN KETMASIN KULGU**

Shodon yuring har doim,  
Yuzdan ketmasin kulgu.  
Parvo qilmang tashvishga,  
Shunda chekinar qayg'u.

Taralsin yuzdan nurlar,  
Ko'zingiz chaqnasin har dam.  
Kulsangiz gar, olam ham kular,  
Uzoq yashar xushchaqchaq odam.

## **AKALARIM BOR**

Bir-biridan aqlii,  
Akalarim bor.  
Biri qo'shiq aytar,  
Chertilsa dutor.

Yana biri esa,  
Men posbonman der.  
Bildingizmi, endi,  
U -milisioner.

## NIMA QILDING DUNYOGA KELIB?

Nima qilding dunyoga kelib,  
Nochorlami suyab suydingmi?  
Yaxshi inson sifatida sen,  
Yaxshilikka qadam qo'ydingmi?

Hovlingda sen ekdingmi gullar,  
Qarilarga berdingmi salom?  
Bir kun sendan shuni so'rardar,  
Javob berolmay qolmagan, tamom.

## IMKONING YETMAYDI

Sen oyga qo'ling cho'zma,  
Yetmaydi sira qo'ling.  
Oyni dgandan ko'ra,  
E'zozla ona yurling.

Yaxshisi, toqqa chiq,  
Shu Vatanga boq.  
Dilingda ezgulikning,  
Mash'alasin yoq.



## **HAZILNING TAGI ZIL**

Ikkinchি sinfda o'qirdim shunda,  
Yiqitdim do'stimni u turardi jim.  
So'ngra u ko'z yoshin to'kkanida,  
Men do'stimga qo'shilib yig'ladim.

Angladim o'shanda, dugonamga  
Qilibman bilmay eng qo'pol hazil.  
Do'stlar, hazilning ham chegarasi bor,  
Oshib ketsa bo'lar ekan tagi zil.

## **SAFDA TUR**

Safda tur alpqomat, botir o'g'lon,  
Mustaqillik deya turgin oyoqqa.  
Yurting sarhadlarin qo'riqla har on,  
Yo'l bermagin dushman-olchoqqa.

## **SHAYTONDAN QOCH**

Kirsang agar shayton makriga,  
Uchraysan xudo qahriga.  
G'ofil banda, aytay ko'zing och,  
Inson bo'lgin, shaytonlardan qoch.

## **HASAD**

Birovni ko'rib qolsa,  
Qaraydi ust-boshiga.  
Yaxshi bo'lsa kiyimi,  
Og'riq kirar boshiga.

Hasad juda yomondir,  
Insoniy xislat emas.  
Do'stim, hasad qilma hech,  
Undan ko'ra qil havas.

## **EZILGANSIZ KO'P**

Bilaman siz ezilgansiz ko'p,  
Hech bo'lmasa bir kun dam oling.  
Yuksaklarga intiling, yeting,  
Yaratgandan inoyat kuting.

Ko'nglingiz ko'tarish qiyin bo'lsa-da,  
Sizni kuldirishni juda xohlardim.  
Ammo yetmasada bunga qudratim,  
Sizga umid ila termulaman jim.

## KERAK EMAS GINA-KUDRATLAR

Insonlar, insonlar, insonlar,  
Gina-kudratlahni unuting bir zum.  
Undan ko'ra do'stlar ko'nglini oling,  
Lablarga qo'ndiring kulgu, tabassum.

Gina-kudratlardan bizga ne foyda,  
Qalblarga sovuqlik soladi, xolos.  
Ahillik ketadi ular bor joyda,  
Ginadan dillami aylaylik, xalos.

## KAMOLOT

«Kamolot» yoshlarga,  
Haqiqiy zo'r qanot.  
Bilimga chorlaydi,  
Doim «Kamolot».

Bolalar, o'smirlar,  
Yigitlar, qizlar.  
Hammasin bir jamlab,  
Tinchlikni ko'zlar.

## YAXSHI NIYAT

Bugun mana a'zo bo'ldim,  
Tashkilot - «Kamalak»ka.  
Doim omon bo'lsa yurtim,  
Yetgaymiz biz tilakka.

Safimizda qoloqlar,  
Bo'lmasin sira deymiz.  
Tirgak bo'lib do'st - do'stga,  
Jips turamiz barchamiz.

Yordam berib buvilarga,  
Uylariga boramiz.  
Uy supurib, suvlar sepib,  
Duolarin olamiz.

«Kamalak»ka a'zomiz,  
Bizlar inoq bo'lamiz.  
Shiorimiz ahillikdir,  
Maqsad sari yuramiz.



## MUNDARIJA

O'zbekiston-Vatanim.....	3
Vatan.....	3
Vatanim.....	4
Bobom Sohibqiron.....	4
Onajonlar.....	5
Shahrim yulduzlarining.....	5
Yulduz bo'lgim keladi.....	6
Shahrim qizlari.....	6
Ustozing duosi.....	7
Ishonch ko'priklari.....	7
Shu qizcha she'r yozarmikin.....	8
Aytilmagan so'z.....	8
Yuzingizdan ketmasin kulgu.....	9
Akalarim bor.....	9
Nima qilding dunyoga kelib.....	10
Imkoning yetmaydi.....	10
Hazilning tagi zil.....	11
Safda tur.....	11
Shaytondan qoch.....	11
Hasad.....	12
Ezilgansiz ko'p.....	12
Kerak emas gina-kudratlar.....	13
Kamolot.....	13
Yaxshi niyat.....	14

**ADABIY-BADIY NASHR**

**OCHILOVA AZIZA**

**SHAHRIM YULDUZLARI**

**She'rlar**

**O'zbek tilida**

Muharrir: G. Xo'jayeva.

Texnik muhamir: Ch.Rahmonov.

Musahhih: G. Xo'jayeva.

**IB 1043**

Terishga 7.08.2006-yilda berildi. Bosishga 16.08.2006-yilda ruxsat etildi. Bichimi  $84 \times 108 \frac{1}{32}$ . Shartli bosma tabog'i 0,84. Shartli bo'yoq-ottisk 0,90. Nashr tabog'i 0,44 . 49 -2006-shartnoma. 97-.buyurtma. 150 nusxada. Erkin narxda.

«Nasaf» nashriyoti, 730018. Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.

Qashqadaryo viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi huzuridagi "Matbaa" sexida chop etildi.

730018. Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.